



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI




No9
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 450 sahifa,
2-sentyabr, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktabgacha ta'lim tashkiloti innovatsion faoliyatini rivojlantirish jarayoni.....	14
Ibragimova Gulsanam Nematovna	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim metodikasida qo'llanilishi va o'qituvchi kompetentligiga ta'siri	22
Abduyev Sheroz	
Boshlang'ich ta'limda "tabiatshunoslik" fanini raqamli platformalar orqali o'qitish metodikasini takomillashtirish: 5e modeli asosida dizayn, baholash va joriy etish.....	25
Ahmadaliyev Shohruh Bahromjon o'g'li	
Ingliz va rus leksikografiyasida o'zbek milliy taom nomlarining lingvistik tahlili	30
Bobojonova Zarina Rashidovna	
Rahbarlarda til bilish darajasi va hissiy intellekt (eq): o'zaro bog'liqlikni o'rganish	34
Isaqlulova Baxtigul Xo'jamovna	
Frazeologizmlarni o'rgatishda matn asosida integratsiyalashgan dars modeli: xorijiy til o'rganuvchilar tajribasi	38
Jumayeva Sadbarg Mirolimovna	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari: rivojlangan davlatlar tajribasi tahlili	42
Karimova Moxichehra Rixsibayevna	
Rus va ingliz tillarida sharqona realiyalarning leksik-semantik tasnifi	46
Kulmamatova Aziza Do'stmamat qizi	
TRIZ metodikasi asosida texnokratik bolalar bilan ishlash tizimini takomillashtirish	50
Orifjonova Mavludaxon Abduqaxxor qizi	
Raqamli ta'lim muhitida pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish.....	53
Raximberganova Munajat Muzaffar qizi	
Structure of Social Conflict and Stages of its Development	57
Zaynutdinova Shahnoza Yuldashevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini baholash va rag'batlantirish tizimini takomillashtirish.....	60
Abduraxmonova Nigoraxon Akramali qizi	
Expression of National Mental Characteristics in the Uzbek Lullaby.....	64
Alimbayeva Shaxlo Tursunovna	
Bo'lajak "texnologiya" fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetentlikni rivojlantirish tizimining pedagogik zarurati	69
Avazov G'oyibnazar Berdiyevich	
Bo'lajak tarbiyachilarda integratsiyalashgan ta'lim faoliyatini rivojlantirish orqali kommunikativ salohiyatini shakllantirish	72
Baratova Yulduz Asadullayevna	
Umumta'lim maktablarida molekulyar fizikani o'qitishning hozirgi holati	76
Boymirov Sherzod Tuxtayevich, Xudoynazarova Visola Musurmonqul qizi	
Ingliz tilini o'qitishda talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini akt vositasida rivojlantirish	80
Ergasheva Sevaraxon Ravshanjon qizi	
Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish istiqbollari.....	84
O'rinova Feruzaxon O'ljayevna, Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi	
IIV litsey o'quvchilarining liderlik kompetensiyasini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari.....	90
Gadoyeva Dildora Baxtiyorovna	
Improving the System of Human Resource Capacity Management in Higher Education Institutions: Evidence from Uzbekistan	98
Imomov I., Umirova D.	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni mantiqiy va tanqidiy fikrlashga o'rgatishning zamonaviy usullari.....	104
Iskandarova Munisa Bahodir qizi	
Tarbiyachi-pedagoglarning emotsional kompetensiyasini rivojlantirish	107
Jovmirzayeva Nargiza Quvondiqovna	



Maktabgacha ta'lim yoshdagi giperaktiv bolalarga ta'lim berishning pedagogik-psixologik usullari	110
Jo'rayeva Nargiza Toirovna, Kamalova Sarvinov	
Blum taksonomiyasi asosida ilmiy kompetentlikni takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari	113
Mustafayeva Nilufar Ulashovna	
Maktabgacha yoshdagi ovoz buzulishiga ega bolalar bilan guruhli mashg'ulotlarni tashkil qilish	117
Umida O'tbasarova Mexmanovna, Maksudbekova Xovvaxon Xamidbek qizi	
Bolalar jamoasida do'stona munosabatlarni shakllantirishda rivojlanish markazlarida loyiha asosida o'qitish texnologiyasidan foydalanish usullari	121
Quronova Ismigul Xolmurod qizi	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda innovatsion metodlar orqali o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi	126
Rustamova Davlatxon Toyirjon qizi	
Oliy ta'limda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning innovatsion modellari	131
Sanayeva Surayyo Bobonazarovna	
"Tibbiy radiologiya" fanini o'qitishda pedagogik muloqot orqali tanqidiy operativ muloqotni o'stirishning o'ziga xos xususiyatlari	139
Shukurova Sevara Ilhomovna	
Improving High Jump Techniques	143
Tajimbetov Anvar Tengeldayevich	
Filologik va ijtimoiy-siyosiy fanlarda ta'lim jarayonining innovatsion metodlari	146
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna	
Понятие логического мышления и его особенности у младших школьников	149
Ахмаджонова Нозима Нодиржон кизи	
Интеграция психологии, обучения английскому языку, дошкольного образования и туризма: междисциплинарная модель формирующего опыта	152
Омонуллаева Дилофуза Асадулла кизи	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yin faoliyatida ijtimoiy motivlarni shakllantirish usullari	157
Abduvaxobova Nodira	
Boshlang'ich ta'limda kognitiv faollikni rivojlantirishning afzalliklari	160
Ismailova Nozima Umaraliyevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini matnni tahlil qilishga o'rgatishda zamonaviy yondashuvlarning ahamiyati	164
Utanbayeva Dildora Abdixadirovna	
Dorivor o'simliklar kursini o'qitish metodikasini takomillashtirishda keys texnologiyalaridan foydalanish	168
Mirzaboyev Timur Bisenbay o'g'li	
Oliy ta'lim talabalarida ijtimoiy-axloqiy kompetensiyani rivojlantirish: empirik tadqiqot natijalari	171
To'raqulov Akbar Rustam o'g'li	
Gerontotexnologiya ijtimoiy-pedagogik innovatsiya sifatida	175
Temirova Muyassar Abdulkarim qizi	
O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda Sharq mutafakkirlarining qarashlaridan foydalanish	180
Raximova Surayyo Otabek qizi	
Yoshlarni kasb tanlashda ruhiy tayyorgarlik va shaxsiy qobiliyatlarni baholash	183
Biysenov Temirbek Taumuratovich	
Talabalarni ta'limiy qadriyatlar asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirishning ahamiyati	188
Choriyeva Surayyo Choriyevna	
Differences Between Computer-Based and Paper-Based Assessment in Inclusive Education	192
Davidova Sayyora Sirojiddin kizi	
Raqamli muhit sharoitida ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonining pedagogik modeli va tajriba-sinov natijalari	196
Donayeva Nozimaxon Norbo'tayevna	
Intellekt xarita yordamida o'quvchilarda "emotsional intellekt"ni rivojlantirish	201
G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich	
Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda o'yin faoliyatining psixologik-pedagogik ahamiyati	206
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarini innovatsion yondashuv asosida boshqarishning nazariy asoslari	210
Mannanova Nargiza Xaydarovna	

Ingliz tilini o'rgatishda ona tilidan keng foydalanishning salbiy va ijobiy jihatlari	215
Masharipova Kumushoy Amin qizi	
The Relationship Between Critical Thinking and Reading Comprehension in Primary School Students	218
Mavlonova Dildora Shukhrat kizi	
Tasviriy san'at mashg'ulotlarida zamonaviy metodlardan foydalanish	222
N. K. Musayeva, U. O. Ziyatova	
Singapurning ta'lim falsafasi: korporativ madaniyatni ma'naviy-ma'rifiy rivojlanish bilan integratsiyalash ...	226
Nishonov Xayrulla Xolmirzaevich	
The Anthropocentric Paradigm in Modern Linguistics: Cognitive Linguistics and Linguacultural Studies in The Study of Language, Consciousness, and Culture	230
Rajabova Shaxlo Shodmonovna	
Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimini rivojlantirish va uning sifatini oshirishda nostandart yondashuvning ahamiyati	234
Ramazonova Salomat Saidovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kreativ sinflar ishini tashkil etishga tayyorlash	238
Saidova Gulruh Halim qizi	
O'zbek oilalarida ota-ona va farzand munosabatlarini tashxis qilishning psixologik xususiyatlari (Farg'ona vodiysi misolida)	242
Turg'unboeva Azizaxon G'ulomovna	
Сущность и специфика развития билингвизма у детей дошкольников	246
Истамова Нигора Азимжановна	
Zamonaviy rahbarning innovatsion boshqarish texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari	249
Xakimova Dildora Mashrabjonovna	
Креативный подход к развитию лингвометодического мышления студентов-филологов	253
Ходжаниязова Айгуль Айтмуратовна	
Umumta'lim maktablarida tarbiya darslarini tashkil etish ijtimoiy zarurat sifatida	257
Rashidova Gulnoza G'ulomovna	
Pedagogik risklarni boshqarishning nazariy asoslari va globallashuv jarayonidagi ahamiyati	261
Xaydarov Sulaymon Amirqulovich	
Xronotop nazariyasiga tahliliy yondoshuvlar va qarashlar	265
Avazov Vahabjon Tolibjon o'g'li	
Ko'zi ojiz bolalarning rus tili darslarida nutqiy kompetensiyasini shakllantirishning psixopedagogik asoslari	268
Abduraximov Asror Sultonali o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kasblar haqida dastlabki tasavvurlarni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari	271
Adizova Nilufar Quvondiq qizi	
Zamonaviy media texnologiyalarini ta'lim jarayoniga qo'llashning zarurati	274
Alimov Asadulla Urokbayevich	
Maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishida ijtimoiy muhitning ta'siri	278
Alimova Umida Jumaboy qizi	
Kognitiv yondashuv asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalari grammatik va diskursiv kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy modeli va pedagogik texnologiyasi	282
Dadadjanova Feruza Muhammadyusupovna	
Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining rivojlanish tarixi va ommalashuvi	286
Hojiyeva Maftuna Ulug'bekovna	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida raqamli resurslardan foydalanish orqali adabiy kompetensiyani rivojlantirish	289
Islomova Xafiza Azamatovna	
Ona tili o'qitish metodikasi fanidan mustaqil ta'limni tashkil etish	293
Ismadiyorova Nafisaxon Ibroximjon qizi	
Axloqshunoslikning global muammolari va texnikaviy muhitning inson hayotiga ta'siri	298
Kozimova Nargiza Istam qizi	
Ichki ishlar organlari xodimlarida kasbiy kompetentlikni oshirish va baholash usullarining xalqaro tahlili	303
Mamatqulova Sanobar Ismatillayevna, Eshmurzayev Yigitali Shokirovich, Kadirova Durdonaxon Rustamovna	
Tabiiy fanlarda bilingval ta'lim va CLIL yondashuv	309
Mannobxonova Muqaddamxon O'ktamxon qizi	



Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda pragmatik muammolar va ularning yechimlari	313
Maxmudova Nigoraxon Boyqo'zi qizi	
Poshshoxo'ja Ibn Abdurahobxo'janing "Miftoh ul-adl" asaridagi pedagogik qarashlari	317
Muzaffarova Farida Muxtor qizi	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida matn tushunishni shakllantirishda germenevtik metodlarning nazariy asoslari	321
Nazirova Shaxnoza Odinajon qizi	
Axborot iste'moli madaniyatini rivojlantirishda raqamli gigiyena va internet xavfsizligi	324
Ramazonov Jahongir Djalolovich	
Informatika fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar	328
Sadinov Otabek Vaxodirovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarning ijtimoiylashuvida musiqa fanining ta'siri	332
Shahobiddinova Zilola Orif qizi	
Madaniy-ijtimoiy va ta'limiy omillarning bolalarning aqliy rivojlanishiga ta'siri	335
Shirinov Otabek Tuvalovich	
Tadqiqot metodi vositasida o'quvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirish	338
Suyarov Kusharbay Tashbayevich	
Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kommunikativ kompetensiyasi va nutq madaniyati	342
Saipova Hilola Abduhamitovna	
"Ekologik ochiq o'yinlar" 5–7 yoshli bolalar uchun	346
Tangirov Zoir Xo'jakulovich	
Yuqori malakali taekvondochilarni o'ziga xos genetik xususiyatlarini hisobga olgan holda sport seleksiyasi	350
Tursunaliyev Ulug'bek Shavkatjon o'g'li	
Musiqa maktabi o'quvchilarida madaniy qadriyatlar va ustoz-shogird an'alarining uzluksiz rivojlanishi ..	353
Seytanov Bayrambay	
Imom Buxoriyning "Al-Jome' as-sahih" asari talabalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish omili sifatida	356
Abduhalimova Nigora	
O'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda AKT vositalaridan foydalanishning metodik asoslari	359
Abdullayeva Zarnigor Usubjon qizi	
Коммуникативная компетентность и культура общения преподавателей начальных классов	364
Арысланбаева Анора Бердаховна	
Проблемы методической подготовки учителей в развитие дискурсивной компетенции по РКИ у учащихся уровня В1 средних общеобразовательных школ Узбекистана	366
Набиева Зарнигор Муминжон кизи	
"Tarbiya" darslari orqali o'quvchilarda huquqiy savodxonlikni rivojlantirish	369
Atamuradov Xasan Yuldoshevich	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining inklyuziv ta'limga tayyorgarligi: pedagogik va psixologik asoslari	374
Baxromova Guljamol Dilshodjon qizi	
Tajriba metodlari orqali maktab o'quvchilarida tabiat hodisalarini bashorat qilish ko'nikmalarini shakllantirish	378
Baxtiyor Imanov, Begali Xoliqnazarov	
Bo'lajak pedagoglarning tashkillashtiruvchi-boshqaruvchilik kompetentligini shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari	384
Japparbergenova Indira Bayramovna	
Integrativ yondashuv asosida biologiya fanidan olimpiada masalalarini yechish metodikasi	387
Jumanov Muratbay Arepbaevich, Raxmatov Uchkun Ergashevich	
Darslarni tashkil qilishda 4K modelini qo'llash imkoniyatlari	393
Kadirov Tulkin Baxridinovich	
Maktabgacha yoshdagi bolalarga tasviriy faoliyatning noodatiy usullarini o'rgatish metodikasi	397
Maxmudova Nasiba Nurmuxammetovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida funksional savodxonlik tushunchasini ilmiy-pedagogik asoslash masalalari	406
Mirzaliyeva Gulhayo Abdulazizovna	



So'rovga asoslangan ta'lim texnologiyasining bosqichlari va qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish	410
Orifjonova Iroda Orifjon qizi, Ochilova Mehrubon Suratovna	
Dermatovenerologiya fanini casc (Critisize, Analyze, Summarize, Conclude) modeli orqali o'qitish va uning talabalar klinik kompetentligini oshirishdagi o'rni	415
Po'latov Boburbek Ta'lat o'g'li	
Sport faoliyatida stress holatini tadqiq etishning nazariy asoslari.....	419
Ruzmatova Nigina Shotilla qizi	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini kreativlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish.....	422
Uchqunova Adiba Roziq qizi	
7-sinf adabiyot darslarida nutqni rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari tahlili.....	427
Umurova Farangiz Askarboy qizi	
O'zbek tilida fe'l birikmalarining pragmatik funksiyalari va ularning ingliz tili bilan qiyosi	430
Xudoynazarova Dildora Shonazar qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi.....	433
Zayniddinova Mahzuna Baxtiyorovna	
Фольклор и время: формирование речевых навыков у детей начальной школы	439
Ниязова Хилола	
Xalq o'yinlari – jismoniy va ma'naviy tafakkur omili	443
Turg'unoy Ahmadjonovna Egamberdiyeva, Ergashoy Valijonova Salimjon qizi	
Использование проектной деятельности для формирования языковой компетенции	446
Чаршамова Мехрийбан Уразбаевна	

SO'ROVGA ASOSLANGAN TA'LIM TEXNOLOGIYASINING BOSQICHLARI VA QO'LLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Orifjonova Iroda Orifjon qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti assistenti

Ochilova Mehrubon Suratovna

Samarqand davlat pedagogika instituti doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada so'rovga asoslangan ta'lim texnologiyasining bosqichlari va qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish masalasi muhokama etiladi. Shuningdek, so'rovga asoslangan ta'lim o'quvchilar bilimni tayyor holatda emas, balki izlab topish, savollar berish, tajriba o'tkazish va o'zlari kashf etish orqali o'zlashtiradigan yondashuv ekanligi hamda uning bosqichlari ilmiy asoslanganligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim texnologiyasi, so'rovga asoslangan ta'lim, ta'lim texnologiyasi bosqichlari, tahlil, innovatsiya.

Abstract: This article examines the stages of inquiry-based educational technology and the process of developing application skills. It emphasizes that inquiry-based education is an approach in which students acquire knowledge not in a ready-made form but through searching, asking questions, experimenting, and making independent discoveries. It is also noted that the stages of inquiry-based education are scientifically grounded.

Key words: educational technology, inquiry-based education, stages of educational technology, analysis, innovation.

Аннотация: В статье рассматриваются этапы исследовательской образовательной технологии и формирование практических навыков. Подчеркивается, что исследовательское обучение представляет собой подход, при котором учащиеся усваивают знания не в готовом виде, а посредством поиска, постановки вопросов, проведения экспериментов и самостоятельных открытий. Отмечается, что этапы исследовательского образования имеют научное обоснование.

Ключевые слова: образовательная технология, исследовательское обучение, этапы образовательной технологии, анализ, инновации.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimi nafaqat bilim berish, balki shaxsda hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish, jamiyat ehtiyojlariga mos, raqobatbardosh va erkin fikrlovchi insonni tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Bugungi globallashuv sharoitida inson kapitalining sifat jihatdan yangilanishi, ayniqsa, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil, muammolarni hal qilish, ijodiy yondashuv va qaror qabul qilish ko'nikmalarining rivojlanishi ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, so'rovga asoslangan ta'lim texnologiyasi (Inquiry-Based Learning) zamonaviy pedagogik jarayonlarda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu yondashuv o'quvchini tayyor ma'lumotni yodlashdan ko'ra, uni mustaqil izlanishga, savollar berishga, faktlarni tahlil qilishga, eksperimentlar o'tkazishga, xulosa chiqarishga va bilimni real hayotda qo'llashga yo'naltiradi. So'rovga asoslangan ta'lim – bu oddiygina fakt va ma'lumotlarni yodlash emas, balki bilimga faol, chuqur va anglab yetilgan tarzda erishishga qaratilgan o'quv jarayonidir. Bu yondashuvda o'quvchi nafaqat tayyor bilimni o'zlashtiradi, balki ilm qanday paydo bo'lishini, ya'ni bilim qanday izlanishlar, kuzatishlar, tajribalar va muhokamalar orqali yaratilishini ham o'rganadi. Ushbu texnologiya xalqaro miqyosda amalga oshiriladigan PISA (Programme for International Student Assessment), TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) va PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) kabi baholash dasturlarida yuqori baholanadigan kompetensiyalarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi ^[10].

So'rovga asoslangan ta'limda o'quvchi o'zi mustaqil tarzda savollar beradi, kerakli ma'lumotlarni izlaydi, tajribalar o'tkazadi, topilgan ma'lumotlarni tahlil qiladi va ularni umumlashtirib, o'z xulosasini chiqaradi. Bu



jarayon davomida u nafaqat o'zi uchun yangi bilim yaratadi, balki uni boshqalar bilan muhokama qiladi, baham ko'radi va kerak bo'lsa, o'z fikrlarini himoya qiladi. Bunday ta'lim shakli orqali o'quvchi faqat faktlarni bilish bilan cheklanmaydi, balki ularni tushunishga, ularning kelib chiqish sabablarini anglashga, ularni baholashga va hayotda qanday qo'llash mumkinligini ko'rishga o'rganadi. Natijada, o'quvchi o'rganayotgan fanni yuzaki emas, balki chuqur va asosli tushunib oladi. Bu esa uni ilm-fanga nisbatan hurmat bilan qarashga, mustaqil fikrlashga, savol berishga va ijodiy yechimlar topishga undaydi ^[7].

Umuman olganda, so'rovga asoslangan o'qitish faqatgina mazmunni yetkazish emas, balki o'quvchining ilm olish jarayoniga faol ishtirokini ta'minlaydi. Bu jarayon o'quvchini chuqur o'ylash, muammolarni tahlil qilish va ular ustida ishlashga o'rgatadi. Shuning uchun ham bunday yondashuv ta'lim sifati va samaradorligini oshiradi va o'quvchini zamonaviy jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Milliy tadqiqot kengashi (NRC) tomonidan e'lon qilingan maqolada sinfda so'rovga asoslangan ta'lim qanday bo'lishi kerakligi haqida beshta asosiy jihat keltirilgan ^[8]. Bu jihatlar quyidagilar:

1. O'quvchilar savol berishni o'rganishadi. Ya'ni, ular ilmiy yo'nalishga oid savollar ustida bosh qotirishadi. Bu savollar qiziqarli, chuqur va izlanishga undovchi bo'ladi.
2. Fikrlar tasodifiy emas, dalillarga asoslanadi. O'quvchilar o'z javoblarini, tushuntirishlarini shunchaki taxmin yoki fikrga asoslamasdan, aniq dalil va isbotlar orqali asoslaydilar. Ilm-fan uchun bu juda muhim.
3. O'quvchilar o'zlari izlanib, ilmiy tushuntirishlar ishlab chiqishadi. Ya'ni, ular oldindan tayyor javoblarni olmaydi, balki tajriba, kuzatish va ma'lumotlar orqali o'z xulosalarini chiqaradilar.
4. Tushuntirishlarni boshqa alternativ fikrlar bilan solishtiradilar. O'quvchilar o'z javoblarini boshqa fikrlar bilan solishtirib ko'radilar – ayniqsa, ilmiy asoslangan muqobil tushunchalar bilan. Bu ularga tanqidiy fikrlashni o'rgatadi.
5. O'rganilgan bilim boshqalar bilan bo'lishiladi. O'quvchilar o'z tushunchalari va xulosalarini sinfdoshlariga tushunarli qilib tushuntiradilar va o'z fikrlarini himoya qilishadi.

Jozef Shvab so'rovga asoslangan ta'lim modelining asoschilaridan biri bo'lib, u insoniyat turli vaziyat va muammolarni ijtimoiy tajribalar orqali o'rganishga qodir degan g'oyaga tayanadi ^[11].

Driver fikricha, so'rovga asoslangan sinfda o'qituvchi o'quv dasturining bir qismi sifatida loyihalarni yaratish, fikrlash va dalillardan foydalanish, tanqidiy tahlil, shuningdek, muhokama, o'qish, grafik-jadvallar bilan ishlash va ko'rgazmali namoyishni ham o'z ichiga olgan o'quv faoliyatini tashkil etadi. Aynan fikrlash qobiliyatining o'sishi faktik ma'lumotlarni egallash va ularning mohiyatini anglab, ahamiyatini tushunib o'zlashtirishiga turtki bo'ladi ^[9]. O'qituvchining asosiy maqsadi – o'quvchilarga o'rganilgan bilimlarni amalda qo'llay olish, mustaqil ma'lumot yig'ish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, hamda bilim qanday yaratilishini chuqur tushunishga yordam berishdir.

O'quv jarayonida maqsad, baholash mezonlari va topshiriqlar aniq belgilangan bo'lib, baholash jarayoni doimiy va hamkorlikda olib boriladi. Baholash, shuningdek, fan darsining bir qismi hisoblanadi, chunki o'quvchilar olimlar qanday qilib natijalarni tekshirishi, asoslashi va takomillashtirishini ham o'rganadilar.

So'rovga asoslangan sinfda o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlik odatiy hol sifatida qabul qilinadi va o'quv jarayoni ham shunga moslashtiriladi. Biroq, har bir o'quvchi o'z bilim darajasi uchun shaxsan javobgardir. O'qituvchi darsda guruh bo'lib ishlanayotgan taqdirda ham, har bir o'quvchining individual tushunishi, bilim darajasi yoki tayyorgarligidagi muammolarni e'tibordan chetda qoldirmasligi kerak. Har bir o'quvchiga o'z bilimni mustahkamlash, uni amaliyotda qo'llash, guruhdoshlari va o'qituvchidan fikr-mulohaza olish imkoniyati berilishi zarur. Bu esa o'quvchining chuqurroq tushunishi va rivojlanishini ta'minlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Klahr va Dunbar tomonidan ishlab chiqilgan so'rovga asoslangan ta'lim bosqichlari to'rt bosqich (Orientatsiya – Konseptualizatsiya – Tadqiqot – Xulosa)dan iborat bo'lib, bunda induktiv va deduktiv mantiqiy yondashuvni qo'llash imkoniyati ko'rsatilgan ^[2].


Margus Pedaste so'rovga asoslangan ta'lim bosqichlarini asosan besh bosqichga ajratadi: Orientatsiya – Konseptualizatsiya – Tadqiqot (Izlanish) – Xulosa – Muhokama (Tahlil) ^[1]. Margus Pedaste zamonaviy nuqtai nazarni keng tasvirlaydi. Bu, ta'lim tadqiqotlarida uchraydigan so'rovga asoslangan ta'limni tizimli ravishda ko'rib chiqish natijasida ishlab chiqilgan bo'lib, u muhokama bosqichini ham kiritadi.



Bir qancha mualliflar muhokamani so'rovga asoslangan ta'lim siklini yakunlovchi bosqich sifatida kiritganlar [3:4], boshqa tadqiqotchilar esa xulosa bosqichini so'rovga asoslangan ta'lim siklining oxirgi bosqichi deb hisoblaydilar [5:6]. Quyidagi jadvalda so'rovga asoslangan ta'lim texnologiyasi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari tahlili keltirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'rovga asoslangan ta'lim – bu o'quvchilar bilimni tayyor holatda emas, balki izlab topish, savollar berish, tajriba qilish va o'zlari ochish orqali o'rganadigan yondashuvdir. O'rganishlarimiz asosida so'rovga asoslangan ta'lim bosqichlari ishlab chiqildi. So'rovga asoslangan ta'lim quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: rejalashtirish, ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish, yaratish, taqdim etish va baholash bosqichlarini o'z ichiga oladi [1-rasm].



1-rasm: So'rovga asoslangan ta'lim texnologiyasi bosqichlari

- 1. Rejalashtirish.** Bu bosqich – so'rovga asoslangan ta'lim jarayonining birinchi bosqichi hisoblanadi. O'quvchilar mavzuga qiziqish bilan yondashadilar. Mavzuni o'rganishni, xuddi bir jumboqni yechayotgandek ko'rishadi. Ular o'zlari o'rganmoqchi bo'lgan mavzu bo'yicha asosiy savollarni shakllantiradilar. Masalan: "Bu nima uchun muhim?", "Qanday ishlaydi?", "Qanday ta'sir qiladi?" degan savollar. So'ng, kerakli materiallar va axborotlarni qayerdan topish mumkinligini aniqlashadi. Ular topgan ma'lumotlarni qanday qilib boshqalarga yetkazish (masalan, taqdimot, poster, loyiha) haqida o'ylab ko'rishadi. Tadqiqot oxirida o'z ishlarni qanday baholash kerakligini ham belgilab olishadi – bu mezonlar "men yaxshi ishladimmi?" degan savolga javob beradi.
- 2. Ma'lumotlarni yig'ish.** Bu bosqichda o'quvchilar ko'p miqdorda ma'lumotlar yig'ishadi. Biroq, bu ma'lumotlar ichida keraklisi va keraksizi aralashib ketgan bo'ladi. Ular hali qaysi ma'lumot foydali, qaysisi befoyda yoki noto'g'ri ekanini aniqlay olmaydi – bu esa chalkashlik keltirib chiqarishi mumkin. Shu paytda o'qituvchi ularga yordam berishi kerak. U ularga qanday qilib to'g'ri, aniq, ishonchli manbalarni ajratib olishni o'rgatadi.
- 3. Tahlil qilish.** Endi o'quvchilar o'zlarining diqqat markazida nima bo'lishini belgilaydi – ya'ni, aniq nimani o'rganishini tanlaydi. Ular o'zlarining tadqiqot maqsadini belgilab, asosiy g'oyani ishlab chiqadi. Biroq, yig'ilgan ma'lumotlar ba'zida juda umumiy yoki aksincha, haddan tashqari murakkab bo'lishi mumkin. Bu esa qarama-qarshi fikrlarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun, o'qituvchi ularga ma'lumotlarni solishtirish, taqqoslash va xulosa chiqarish bo'yicha yo'l-yo'riq ko'rsatadi. Bu jarayon chuqur tahlil qilish ko'nikmasini shakllantiradi.
- 4. Yaratish.** O'quvchilar endi o'rganilgan bilimlar asosida biror mahsulot yaratishga tayyor bo'ladi. Masalan, prezentatsiya, loyiha hisobotlari, grafiklar, videolar va hokazo. Lekin ular hali ham bu ish to'g'ri chiqayotimi yoki yo'qmi, aniq bilmasligi mumkin. Shu sababli, o'qituvchi ularni yo'naltiradi va kerak bo'lsa, ularga yordam beradi. O'qituvchi, shuningdek, guruh bo'lib ishlashni rag'batlantiradi – bu o'quvchilarni bir-biridan o'rganishga va jamoaviy muhokama orqali yaxshi mahsulot yaratishga yordam beradi.




5. **Taqdim etish.** Bu bosqichda o'quvchilar o'z ishlarini boshqalar bilan baham ko'rishadi. Bu taqdimot bo'lishi mumkin yoki poster, video, hatto og'zaki suhbat. Bu orqali ular o'zlarining o'rganganlarini boshqalarga tushuntirishni o'rganadilar – bu juda foydali ko'nikma. O'quvchilar, shuningdek, fikr bildiruvchi va savol beruvchilarga aylanishadi. Tajribasiz yoki yangi o'rganayotgan o'quvchilar uchun ishlarni kichik guruhlarda baham ko'rish qulayroq – bu ularga o'z fikrini erkinroq ifoda etishga yordam beradi.
6. **Baholash.** Bu bosqichda o'quvchilar o'z ishini tahlil qiladi, natijalarni ko'rib chiqadi. O'qituvchi ularga “dastlab nima qilishni rejalashtirganding?”, “hozirga kelib nima o'zgardi?” kabi savollar orqali o'z-o'zini tahlil qilish imkoniyatini beradi. O'quvchilar baholash uchun rubrika (ya'ni, oldindan belgilangan mezonlar) dan foydalanadilar. Bu bosqichda o'quvchilar bir-birining ishlarini ham ko'rib chiqib, fikr bildiradilar (ya'ni, o'zaro tahrir). Muhimi – baholash faqat yakuniy natijaga qaratilmasligi kerak, balki butun jarayon (qanday o'rgandi, qanday o'yladi, qanday yo'l tanladi) ham baholanishi zarur. Aks holda, bu faqat natijaga erishish uchun nusxa ko'chirishga olib kelishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bu barcha bosqichlar o'quvchilarni mustaqil, faol va ijodiy o'rganishga, fikrlashga va o'z bilim jarayonini boshqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu yerda murabbiy, yo'lboshchi sifatida o'quvchilarga kerakli ko'nikmalarni o'rgatadi, ularga mustaqil fikrlash va o'zgaruvchan vaziyatlarda to'g'ri yo'l topishga yordam beradi.

Bu jarayon kognitiv va emotsional soha bilan bog'liq bo'lib, o'quvchining aqliy faoliyati: fikrlashi, tahlil qilishi, xotirasi, tushunishi kabi jihatlarni rivojlantiradi. Shu bilan birga, o'quvchi o'rganishdan qanday motivatsiya oladi, o'ziga ishonchi qanday, o'qishga munosabati qanday – bular ham muhim. Bundan tashqari, bu bosqichlar metakognitsiya bilan bog'liq ^[7]. Bu – o'quvchining o'z o'rganish jarayonini tushunishi, nazorat qilishi va uni yaxshilashga harakat qilishidir. Ya'ni, o'quvchi: “Men qanday o'rganayapman?”, “Qayerda qiynalдим?”, “Yana qanday usulni sinab ko'rishim mumkin?” – degan savollarni o'ziga berib, o'z o'rganishini nazorat qiladi.

So'rovga asoslangan ta'limni boshqaradigan ba'zi tamoyillar mavjud va ularni quyidagicha umumlashtirish mumkin (2-rasm):



2-rasm: So'rovga asoslangan ta'lim texnologiyasi asosiy tamoyillari

1. **O'quvchilar tadqiqotchi sifatida.** So'rovga asoslangan ta'lim (Inquiry-Based Learning – IBL) modelida o'quvchilar yangi mavzu bilan tanishtiriladi va ilmiy tadqiqot o'tkazishlari uchun savollar ishlab chiqishga undaladi ^[12].
2. **O'qituvchilar – tadqiqot yordamchilari sifatida.** So'rovga asoslangan o'qitish modelida o'qituvchi vazifasi o'zgaradi: o'quvchilar tadqiqotchi bo'lsa, o'qituvchilar ularni yo'naltiruvchiga aylanadi ^[13].
3. **O'zaro hamkorlik.** So'rovga asoslangan o'rganishning yana bir asosiy tamoyili bu – tengdoshlar bilan fikr almashish va bir-biridan o'rganishdir. So'rovga asoslangan ta'limda o'quvchilar bir-birining fikrini eshitib, o'z qarashlarini sinab ko'rishadi. Ular butun jarayon davomida, dastlabki savoldan tortib yakuniy loyiha ishlab chiqishgacha hamkorlikda ishlashadi.



4. **O'rganishni tahlil qilish (Reflektivlik).** So'rovga asoslangan o'rganishning so'nggi tamoyili – o'quvchilarning o'z o'rganishlarini tahlil qilishidir (Pedaste va boshq., 2005). Buni sikl oxirida dastlabki savolni yana muhokamaga qo'yish orqali amalga oshirish mumkin – o'quvchilar o'z javoblarini qanday o'zgartirganini ko'rsatishadi. IBLda asosiy rol o'quvchilarniki bo'lsa-da, o'qituvchi ularni yo'ldan adashmasligi uchun yonlarida bo'ladi va kerakli paytda yo'l-yo'riq beradi. O'qituvchi biladiki, izlanish yo'li turli yo'nalishlarga olib borishi mumkin va har bir o'quvchiga manzilga yetib borish uchun turli vositalar kerak bo'ladi. O'qituvchi to'g'ri yordam bersa, o'quvchilar osonroq o'rganadi va mustaqil, izlanuvchan bo'lib ulg'ayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдуллаева З. Замонавий педагогик технологиялар ва уларнинг таълим жараёнидаги ўрни. – Тошкент: Фан ва технология, 2021. – 180 б.
2. Каримов Б. Та'лим жараёнида интерфаол методлардан фойдаланиш // СамДУ Илмий ахборотлари. – 2020. – Т. 3. – № 2. – Б. 45–52.
3. Қодиров Х. Педагогик инновациялар назарияси ва амалиёти. – Тошкент: Ўзбекистон педагогика илмий тадқиқот институти, 2019. – 210 б.
4. Шодмонова Н. Та'лим технологияларининг методологик асослари // ЎзМУ Илмий журнали. – 2022. – Т. 6. – № 1. – Б. 112–120.
5. Dewey J. Experience and Education. – New York: Simon & Schuster, 1997. – 91 p.
6. Bruner J. The Culture of Education. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1996. – 240 p.
7. Kuhlthau C. C., Maniotes L. K., Caspari A. K. Guided Inquiry: Learning in the 21st Century. – Santa Barbara: Libraries Unlimited, 2015. – 180 p.
8. Justice C., Rice J., Warry W., Inglis S., Miller S., Sammon S. Inquiry in Higher Education: Reflections and Directions on Course Design and Teaching Methods // Innovative Higher Education. – 2007. – Vol. 31. – No. 4. – P. 201–214.
9. Pedaste M., Mäeots M., Siiman L. A., de Jong T., van Riesen S. A., Kamp E. T., Tsourlidaki E. Phases of Inquiry-Based Learning: Definitions and the Inquiry Cycle // Educational Research Review. – 2015. – Vol. 14. – P. 47–61.
10. Prince M. J., Felder R. M. The Many Faces of Inductive Teaching and Learning // Journal of College Science Teaching. – 2007. – Vol. 36. – No. 5. – P. 14–20.
11. Kolb D. A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1984. – 256 p.
12. Savery J. R. Overview of Problem-Based Learning: Definitions and Distinctions // Interdisciplinary Journal of Problem-Based Learning. – 2015. – Vol. 1. – No. 1. – P. 9–20.
13. Barron B., Darling-Hammond L. Teaching for Meaningful Learning: A Review of Research on Inquiry-Based and Cooperative Learning. – San Francisco: Jossey-Bass, 2008. – 180 p.
14. Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги. Педагогик технологиялар ва интерфаол методлар: методик қўлланма. – Тошкент: 2018. – 95 б.
15. OECD. Future of Education and Skills 2030: OECD Learning Compass. – Paris: OECD Publishing, 2019. – 54 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.